

TIBBIYOT YO'NALISHIDAGI BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

T.D. Abdumannonov

**Farg'ona jamoat salomatligi Tibbiyot instituti
registrator ofisi xizmat ko'rsatish bo'lim boshlig'i
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18538070>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak tibbiyot pedagoglarining professional faoliyatida samarali muloqot qila olish qobiliyatini shakllantirish va uni ta'lim jarayonida tizimli rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishdan iborat. Ishning nazariy qismida kommunikativ kompetentlik tushunchasi, uning tarkibiy elementlari (lingvistik, sotsiokultural, psixologik va strategik komponentlar) hamda darajalari (boshlang'ich, o'rta, yuqori) tahlil qilinadi. Shu bilan birga, kommunikativ kompetentlikning tibbiyot pedagoglari faoliyatida ahamiyati va kasbiy muvaffaqiyatga ta'siri ilmiy jihatdan asoslanadi. Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning samarali metodik usullari, ma'ruza va seminar mashg'ulotlari, amaliy klinik mashg'ulotlar, individual va kichik guruh ishlari, shuningdek, reflektiv faoliyat orqali pedagogik strategiyalarni takomillashtirish jarayoni yoritilgan.

Аннотация: В данная статья посвящена формированию у будущих медицинских педагогов умения эффективно общаться в профессиональной деятельности и разработке методики его системного развития в образовательном процессе. В теоретической части работы анализируется понятие коммуникативной компетентности, ее структурные элементы (лингвистический, социокультурный, психологический и стратегический компоненты) и уровни (начальный, средний, высокий). В то же время значение коммуникативной компетентности в деятельности медицинских педагогов и ее влияние на профессиональный успех научно обоснованы. Освещен процесс совершенствования педагогических стратегий посредством эффективных методических приемов формирования коммуникативных умений будущих педагогов, лекционных и семинарских занятий, практических клинических занятий, индивидуальной и малых групповой работы, а также рефлексивной деятельности.

Abstract: This article aims to develop a methodology for the formation of the ability to effectively communicate in the professional activities of future medical teachers and its systematic development in the educational process. The theoretical part of the work analyzes the concept of communicative competence, its structural elements (linguistic, socio-cultural, psychological, and strategic components), as well as levels (primary, intermediate, high). At the same time, the significance of communicative competence in the activities of medical teachers and its influence on professional success are scientifically substantiated. The process of improving pedagogical strategies through effective methodological methods of forming communicative skills of future teachers, lectures and seminars, practical clinical classes, individual and small group work, as well as reflexive activity is highlighted.

Kalit so'zlar: Tibbiyot pedagogi, kommunikativ kompetentlik, kasbiy muloqot, pedagogik metodika, ta'lim jarayoni, amaliy mashg'ulotlar, interaktiv ta'lim, psixologik komponent, lingvistik komponent, sotsiokultural komponent, sStrategik component.

Ключевые слова: Медицинский педагог, коммуникативная компетентность, профессиональное общение, педагогическая методика, образовательный процесс, практические занятия, интерактивное обучение, психологический компонент, лингвистический компонент, социокультурный компонент, стратегический компонент.

Key words: Medical pedagogue, communicative competence, professional communication, pedagogical methodology, educational process, practical classes, interactive learning, psychological component, linguistic component, socio-cultural component, strategic component.

KIRISH

Tibbiyot yo'nalishidagi pedagoglar kasbiy faoliyatida nafaqat chuqur ilmiy bilimga, balki samarali kommunikatsiya qobiliyatiga ham ega bo'lishlari zarur. Kommunikativ kompetentlik – bu shaxsning professional, ijtimoiy va pedagogik faoliyatda samarali muloqot qila olish qobiliyatini ifodalaydi. Tibbiyot pedagoglari uchun ushbu kompetentlik ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Tibbiyot yo'nalishidagi pedagoglarning kasbiy faoliyati nafaqat chuqur ilmiy bilim va malakaga, balki yuqori darajadagi kommunikativ kompetentlikka ham tayangan bo'lishi lozim. Kommunikativ kompetentlikda samarali muloqot qila olish qobiliyati, kasbiy faoliyatning turli bosqichlarida, shu jumladan, ilmiy-tadqiqot, ta'lim-tarbiya va klinik jarayonlarda samarali ishlashga asos bo'ladi. Tibbiyot pedagoglari uchun bu ko'nikma ayniqsa muhimdir, chunki ular nafaqat talabalarga nazariy va amaliy bilimlarni yetkazib berish, balki kasbiy jamoa, bemorlar va ularning oilalari bilan ham sifatli va samarali muloqotni yo'lga qo'yish vazifasini bajaradilar. Samarali kommunikatsiya pedagoglarga talabalar bilan interaktiv ta'lim jarayonlarini tashkil etishda, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishda, shuningdek, bemorlarni diagnostika va davolash jarayonlarida yetarli tushuntirishlar berishda yordam beradi.

Shu nuqtai nazardan, tibbiyot pedagogining kommunikativ kompetentligi nafaqat kasbiy muvaffaqiyatni, balki tibbiy ta'lim sifatini va bemorlar bilan muloqot samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogning muloqot qobiliyati uning kasbiy obro'si, ta'lim jarayonidagi samaradorligi va bemorlar bilan ishonchli aloqalarni o'rnatishida bevosita rol o'ynaydi. Shu bois, tibbiyot yo'nalishidagi pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda kommunikativ malakalarni rivojlantirishning metodik va psixologik asoslariga alohida e'tibor qaratish zarurdir.[1.351-352.]

Metodik yondashuvlar asosida, interaktiv mashqlar, rol o'yinlari, case-study va refleksiya – kompetentlikni tizimli ravishda shakllantirishga yordam beradi. Shu orqali bo'lajak pedagoglar nafaqat bilim yetkazuvchi, balki samarali muloqotchi sifatida o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Kommunikativ kompetensiyaning bo'lajak tibbiyot xodimlarini kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi o'rni muhim ekaniga shubha yo'q. Kommunikativ kompetensiyaning asosiy omillaridan biri belgilangan ma'lumotlarni muntazam to'plash, tahlil qilish va tartibga solish amalga oshirishdadir. Bo'lajak tibbiyot xodimlarini muloqotga kirishishlarida verbal va noverbal muloqot usullaridan foydalanishlari muhim ahamiyatga ega. Biroq samarali kommunikatsiya, har holda kishilarning shaxslararo munosabatda bir-birlarini tushunishga

qodirligini nazarda tutishi kepak. Shu bilan birga insonning nafaqat shaxs, shuningdek faoliyatning sub'ekti sifatida to'laqonli shakllanishi uchun kommunikatsiyaning ahamiyati haqidagi fikr, tadqiqotchi L.P. Gpimakda tomonidan taxlil qilingan: "insonni inson bo'lishining yana bir sababi shundaki, u o'ziga o'xshaganlar bilan qizg'in muomala qilishi tug'ilgandan boshlab, insonlar bilan doimiy munosabatda bo'lish – shaxsni to'laqonli rivojlanishda amalga oshirilishi kerak bo'lgan shartlari muloqotning ruhiy muvozanatni saqlashga yordam beradi, paydo bo'layotgan to'qnashuv va nizolarni yumshatadi, stress xolatidan chiqaradi, ijtimoiy hayotdagi o'rnini nufuzini oshiradi" [2.42.].

"Kommunikatsiya" va "munosabat" tushunchalarini ajratish shu darajada qiyinki, tadqiqotchi V.M.Kupbatov bu haqda mulohaza yuritib, o'zining quyidagi ikki ta'rifini beradi: "Kommunikatsiya – munosabat jarayoni, ikki va undan ortiq individlar aloqasi, bitta inson tomonidan boshqasiga ma'lumotni yetkazish. Torroq ma'noda – yuboruvchidan oluvchiga (kommunikatordan retsipientga) ma'lumot jo'natish jarayoni", ammo biz bu ta'rifga rozilik bildirishga xaqimiz [3.77, 47.]. "Munosabat" esa – insonlar orasidagi o'zaro muloqot va hamkorlik jarayoni bo'lib, unda faoliyat, ma'lumot, his-tuyg'u, ko'nikma, malaka, mehnatning natijasi bilan o'zaro almashish sodir bo'ladi" [4.77,145.]. Darhaqiqat, muloqot yetarli darajada bir – birini to'ldirib boradi.

Bugungi kunda har bir shaxs butun umri davomida deyarli har kuni o'ynaydigan, qator ijtimoiy rollar haqida so'zlashish taklif qilinadi. Ijtimoiy rollar mutloqo bir-birlari bilan bog'lanmagan bo'lishi mumkin, va ular bir-birlari ortidan borishi ham shart emas, shunga qaramay ular bir vaqtning o'zida hatto bir kommunikativ-maishiy vaziyatda ham birga yaqin mavjud bo'lishlari mumkin. Asosiy rollar orasida "barcha uchun rol" yoki namoyish qilinadigan xulqatvor ajralib turadi; "guruh uchun rol", jumladan kasbiy va avvalgi har ikkisidan keskin farqlanuvchi "o'zi uchun rol" [5.16,186.] kabilar.

Bo'lajak tibbiyot xodimlarining kommunikativ kompetentligining shakllanish jarayoni o'quv jarayoni orqali amalga oshirilishi mumkin, u albatta quyidagilarni qamrab oladi:

- o'quv jarayonida belgilangan fanlar masalan nutq madaniyati va ish yuritish asoslari, pedagogika va psixologiya, kasbiy pedagogika va kasbiy psixologiya;

- talabalarining o'quv fanlarini o'zlashtirish jarayonida shakllanuvchi kasbiy (professional) kompetensiyalari;

- talabaning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishi kasbiy faoliyatida tutgan o'rnini orqali. Bularning barchasi o'ziga xos majmuani ifodalaydi, ularning vositasida bo'lajak tibbiyot xodimlarining shaxsi shakllanadi va rivojlanadi, lekin shu tarzda, u o'zining keyingi rivojlanishi va kamolotga yetkazish usullari egallashga imkoni bo'lsin va bu bo'lajak tibbiyot xodimlari "inson – jamiyat - olam" tizimida professional sub'ekt sifatida yanada samarali ishlashini ta'minlayotganligi bilan namoyon bo'ladi.

Bo'lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy mahorati uning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatining vositalari bilan ta'minlanishi kerak, u qandaydir aniq qobiliyatlarsiz, shaxsning kommunikativ sifatlarisiz bo'lmaydi, bular ham faoliyatning o'ziga, ham qaror qabul qilishdagi muhim ko'rsatmalar, kasbiy xarakter va jamiyatga mos tarzda yashash muhitiga bog'liq. Bu yerda yodga olingan kommunikativ qobiliyatlar esa aynan kasbiy qobiliyatlar tizimida mavjud va bo'lajak tibbiyot xodimlarini kommunikativ kompetentligini shakllantirishda yetarli darajada muhim ahamiyatga ega bo'ladi, bunda hatto uning kasbiy faoliyatini asosi bo'lishi ham mumkin.

“Kommunikativ qobiliyatlar individ faoliyatining muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlovchi xususiyatlar yoki fazilatlar sifatida yaqqol ko‘rinishi mumkin, ya’ni bir insonni boshqasidan ajratib turuvchi va muvaffaqiyatli faoliyatda ko‘rinadigan individual sifatlar” [6.42.166.].

O‘tib kelayotgan, yosh avlod uchun kerakli kommunikativ tajribani o‘zlashtirish, nafaqat boshqa insonlar bilan bevosita o‘zaro kommunikativ bog‘lanish jarayonlarida balki kasbiy faoliyatni samarali tashkil qilish uchun ham zarur. Har bir inson o‘zi uchun kerakli bo‘lgan kommunikativ vaziyatlar xarakteri haqidagi ma’lumotlarni olish uchun zarur bo‘lgan vositalar: (Ijtimoiy jarayonlar omaviy axborot vositalari, turli hil mutaxassislik doirasidagi adabiyotlardan tashkil torishi mumkin). Shu sababli albatta har bir bo‘lajak shifokorlarga kasbiy faoliyatiga doir integratsion kommunikativ kompetentlik haqida ham gapirish zarur, ba’zi bir alohida hollar bundan mustasno, bu jarayonga maxsus, mutaxassislikga doir ta’lim kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Kommunikativ kompetentlikka murojaat qilar ekanmiz, ta’kidlash joizki, u o‘z rivojlanishida qandaydir dinamik ta’lim sifatida ikki bosqichdan o‘tadi: yuqorida aytib o‘tilgan, shaxs rivojlanishining ma’lum bosqichidan birga mavjud bo‘luvchi, shuningdek darajadan darajaga rivojlana oladigan kasbiy va umumiy. Bu “kommunikatsiya” “tilini” tartibsiz, stixiyali o‘zlashtirish, hamda ta’lim olish vositasida sodir bo‘ladi. Bunda agar gap kasb haqida borsa, unda bu jarayon maxsus tashkil etilgan o‘qish bilan bog‘liq bo‘lsa va ma’lum shartlar bajarilsa, samaraliroq bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni ta’kidlash joizki tibbiyot yo‘nalishidagi bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi zamonaviy kasbiy ta’lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ kompetentlik nafaqat pedagogning professional faoliyatini samarali tashkil etish, balki talabalarga bilim va ko‘nikmalarni yetkazish, kasbiy jamoa va bemorlar bilan muloqot sifatini oshirishning asosiy omilidir.

Tahlil qilingan adabiyotlar va empirik tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, kommunikativ kompetentlik bir nechta tarkibiy elementlardan iborat: lingvistik, sotsiokultural, psixologik va strategik komponentlar. Ushbu komponentlar pedagogga turli pedagogik va kasbiy vaziyatlarda samarali muloqot qilish, murakkab vaziyatlarda murosaga kelish va interaktiv ta’lim metodlarini qo‘llash imkonini beradi.

Shuningdek, kommunikativ kompetentlikning rivojlanish darajalari aniqlangan: boshlang‘ich, o‘rta va yuqori daraja. Har bir daraja pedagogning muloqot qobiliyati, auditoriya bilan ishlash samaradorligi va pedagogik vazifalarni bajarish qobiliyatini belgilaydi.

Metodik jihatdan, bo‘lajak tibbiyot pedagoglarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish quyidagi shakllarda samarali amalga oshiriladi: ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari, amaliy klinik mashg‘ulotlar, individual va kichik guruhli ishlash, shuningdek, reflektiv faoliyat orqali o‘z pedagogik uslublarini tahlil qilish. Ushbu metodlar pedagogning muloqot ko‘nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirishga va professional faoliyatda yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak tibbiyot pedagoglarining kommunikativ kompetentligini shakllantirish metodikasi pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo‘lib, u kasbiy malaka, ta’lim sifati va bemorlar bilan muloqot samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Pedagogik amaliyot va ta’lim jarayonini takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratadi hamda kommunikativ

ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan strategik yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ergasheva Sh.P. "Tibbiy ta'lim talabalarining kommunikativ kompetentligini shakllantirish zaruriy tarkibiy qismi". / International scientific and practical conference "actual issues of primary education: problems, solutions and development prospects" april 26, 2024. - B. 351-352.
2. Гримак Л.П. Общение с собой: Начала психологии активности. — М.: Политиздат, 1991. — С. 3. 2.
3. Курбатов В.И. Искусство управлять общением. — Ростов н/Д: Феникс, 1997. — 347 с.
4. Курилова С.Ю. Формирование коммуникативной компетентности старшеклассников в учебной проектной деятельности: Дисс... канд. пед. наук. — Владикавказ, 2011. — 224 с.
5. Левин В.А. Образовательная среда: от моделирования к проектированию. — М.: Смысл, 2001. — 365 с. 5. Леонтьев А.Н. Избранные психологические произведения: В 2т. // Т.1. М.: Педагогика, 1983. — 68 с.